

## MEDIADISKURSDA ORTIQCHALIKNING LINGVOPRAGMATIKASI

Yo'ldosheva Dilnoza Xasan qizi

Navoiy Innovatsiyalar Universiteti,  
Filologiya va tillarni o'qitish kafedrası  
dilnozayuldasheva1994@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17348345>

XXI asr boshidagi til nazariyasi diskursiv va kognitiv lingvistika, psixolingvistika, kommunikativistika, semiotika, amaliy lingvistika, mediapsixologiya va medialogiya doirasida interaktiv mediadiskursni tadqiq etishga qiziqish ortmoqda. Shu bilan birga, tilshunoslar va boshqa vakillar tomonidan hal qilinmagan bir qator ilmiy vazifalar mavjud. Media-kurs-ommaviy axborot vositalari sohasidagi nutq faoliyatining barcha jarayonlari va hosilalari, shu jumladan ularni barcha murakkabliklari bilan muvofiqlashtirish masalalari to'plami.<sup>1</sup>

Har qanday nutqda muayyan mazmun voqelanadi, til egasi nutq jarayonida til birliklaridan o'z maqsadi, sharoiti va muhitga qarab foydalanadi. Shu nuqtayi nazardan til insoniyatning aloqa vositasi bo'lib, tabiat va jamiyatdagi narsa va hodisalar to'g'risida xabar berishdan tashqari, suhbatdosh yoki tinglovchining saviyasini, dunyoqarashini ko'rsatish, bir-biriga ma'lum ta'sir o'tkazish, hissiyotini qo'zg'atish kuchiga ham ega. Adresantning tinglovchiga hissiy ta'sir ko'rsatish maqsadi nutq uslublarining ba'zilaridagina amal qiladi, sababi, ilmiy va rasmiy-idoraviy uslubda so'zlar uzual ma'noda qo'llanadi, ko'pincha darak gaplardan foydalaniladi, jamiyatdagi barcha sohalarda o'ziga xos atamalar qo'llaniladi, bundan tashqari, ushbu uslublarda gap bo'laklari har doimigi tartibda bo'ladi. So'zlashuv, publitsistik, badiiy uslublarda esa nutq ta'sirchan bo'lishi uchun hissiy so'z va birikmalardan foydalaniladi, shu jihati bilan uslublar bir-biriga o'xshaydi, biroq bular orasida so'zlashuv hamda badiiy uslub bir-biriga juda yaqin turadi. Sababi har ikkalasida ham so'z erkinligi mavjud, shu bilan birga, har ikkalasida ham nutq individual, o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'ladi. Xususan, nutq egasi so'zlashuv uslubda o'zining nutq qobiliyati va dunyoviy bilimlaridan kelib chiqqan holda nutqni hosil qiladi, badiiy uslubda ham yozuvchi o'z maqsadi, individual qobiliyatiga ko'ra obrazlarni gavdalantirib, ularning nutqini shakllantiradi. Bundan tashqari, bu ikki uslubda ko'pincha turli uslubiy bo'yoqli so'zlar, turli affikslar, tovushlarning fonetik o'zgarish holatlari kuzatilib, xalqqa tegishli umumxalq tili ko'lam jihatdan ancha kattadir. So'zlashuv uslubidagi matn hamda dramalarda dialektlar, turli ijtimoiy sohalarga oid so'zlar o'rin egallaydi. Ammo bu ikkala nutqning bir-biridan farqli tomonlari mavjud bo'lib, badiiy matnning tahlil etish bilan fikrimizni izohlab ketishga qaror qildik, xususan, badiiy matnning nutqi boshqa nutq turlaridan sezilarli farq qiladi, bu muallif va o'quvchi o'rtasidagi munosabatlar, o'zaro ta'sirning alohida turini, dunyo haqidagi qarashlar, estetik va individual bilimlardan foydalanishni, nutq madaniyati va uning aks ettirilishi bilan bog'liqdir. Nutq madaniyati to'g'risida gap borar ekan, tabiiyki, nutqda so'zlarning o'rinli va o'rinsiz ishlatilishi to'g'risida ham bahs boradi. Qo'llangan til birliginining o'rinli yoki o'rinsiz deyilishida, albatta, ma'lum bir o'lchovga asoslaniladi. Matnda badiiy-estetik mazmunning voqelanishida turli pragmatik omillar ta'sir ko'rsatadi. Pragmatik omillarning o'zi ham rang-barang, ularning har birini pragmatik mazmun va so'zlovchi intensiyasi hamda nutqiy natija nuqtayi nazaridan atroflicha tahlil qilish amaliy tilshunoslik,

<sup>1</sup> *Media -Diskurs Gribovod E. G.* // Diskurs-Pi. — 2013. — № 3.

tildan amaliy foydalanish samaradorligini oshirish muammolari yechimida katta ahamiyat kasb etadi.

Lingvistik pragmatikaning xususiy masalalari nutq subyekti, nutq obyekt, nutq vaziyati bilan bog'liq ravishda yuzaga keladi. Kontekst masalalari xususidagi bunday tadqiqotlarning yuzaga kelishi lingvistik pragmatikani o'rganishga yo'l ochdi. Lingvistik pragmatikaga bo'lgan qiziqishning kuchayishi, asosan, tilshunoslikda mazmuniy sintaksis muammolari bilan bog'liq yangi nazariy adabiyotlarning nashr qilinishi natijasidir. Bunday ishlarning amalga oshirilishi semantik sintaksis masalalarini yanada murakkablashtiradi va pragmatik tadqiqotlar uchun yo'l ochadi. Pragmalingvistika bo'yicha yaratilgan tadqiqotlarda ta'kidlanishicha, zamonaviy lingvopragmatikaning asosi nutqiy aktlar nazariyasi hisoblanadi. Tilshunoslikda "nutqiy akt" tushunchasini dastlab Dj.Ostin<sup>2</sup> qo'llagan edi. U nutqiy akt tushunchasining mohiyatini ochib berishda uni tashkil qiluvchilar sifatida lokutsiya, illokutsiya va perlokutsiya kabi turlarni ajratib, shu asosda nutqiy aktlarni tasniflashga harakat qilgan. 1969-yilda Dj.Serl<sup>3</sup> tomonidan nutqiy aktlar nazariyasi fanlararo turli ilmiy muammolar yechimini topishda qo'llanila boshlaydi.

Jahon pragmalingvistlari tomonidan sistem-struktur xususiyatiga ko'ra nutqiy akti 3 ta bosqichdan tashkil topgan jarayon deb qarash qabul qilingan. Bular quyidagi bosqichlardir: 1) *lokutiv akt* – muayyan bir mazmunga va ma'lumotga ega bo'lgan lisoniy gapni yaratish hamda uni bayon etish; 2) *illokutiv akt* – gapni bayon etish bilan uning mazmuniy "kuchi" (yoki shu mazmunni ifodalovchi performativ (xatti-harakat) usul orqali ma'lumot berish, taklif berish, va'da berish kabi muloqot maqsadini ifoda etish; 3) *perlokutiv akt* – bayon etilgan gapning auditoriyaga ta'sir etish bosqichi bo'lib, bunda mazkur gap bayon etilgan holat uchun uning ta'siri yoki natijasi muhim ahamiyat kasb etadi<sup>4</sup>.

Ortiqchalik tamoyiliga asoslangan tavnologiya hodisasining xarakterli xususiyatlaridan kelib chiqilsa, hodisa fikrni semantik yoki stilistik qiymatini oshirishga xizmat qilmaydi. Masalan, *tun qorong'usi, ko'zdan yosh to'kmoq, navkar yigitlar* kabi strukturalarda asoslarning takrorini emas, balki semalarning takrorini uchratish mumkin. Quyida Gulnora Rahmonning "Sipohiyalar xonadoni" tarixiy dramasiidan keltirilgan misollarda "*tun qorong'usi*" birikmasida *qorong'u* leksemasi, "*ko'zlaridan duv-duv yoshlar to'kar*"da *ko'z* leksemasi, "*navkar yigitlar*"da esa *yigit* leksemasi o'rinsiz ortiqchalikni yuzaga chiqarmoqda. Ushbu birliklar quyidagi holda qo'llanganda ham hech qanday ma'noda o'zgarish ro'y bermagan bo'lardi:

*Og'a, ijizat bersangiz, alarni rozilig'ingizdan xabardor etsam. Tun qorong'usida kirib kelurmiz. – Tunda kirib kelurmiz.*

*U devonavash bog' kezib yurganida donishmand otasi uning izlaridagi qon tomchilarini ko'rib, shu tomonga yo'l olibdi. Ko'rsaki, qizi o'z-o'ziga so'yulab, ko'zlaridan duv-duv yoshlar to'kar va dir-dir titrar emish. – Ko'rsaki, qizi o'z-o'ziga so'yulab, duv-duv yoshlar to'kar va dir-dir titrar emish.*

<sup>2</sup> Остин Дж. Слово как действие [Электронный ресурс]/ Дж. Остин// Новое в зарубежной лингвистике. Теория речевых актов. – 1986. – Вып. 17. – С.122-129. Режим доступа: [https://classes.ru/grammar/159.newinlinguistics17/source/worddocuments/\\_1.htm](https://classes.ru/grammar/159.newinlinguistics17/source/worddocuments/_1.htm).

<sup>3</sup> Серль Дж. Что такое речевой акт? [Электронный ресурс]/ Дж. Серль// Новое в зарубежной лингвистике. Теория речевых актов. 1986. – Вып. 17. – С.151-169. Режим доступа: <http://philology.ru/linguistics1/searle-86.htm>.

<sup>4</sup> Levinson S.C. Pragmatics. – Cambridge: Cambridge University Press, 1983. – P.9-236.

*Sizning mundog' bezovta ko'rinishingiz maqbul emas. O'g'illarimiz ne xayolga borur? Navkar yigitlar ne deydur? – Navkarlar ne deydur?*

Yuqoridagi jumlada navkar so'zining ma'nosi "Navkar, nu kar (mo'g'ulcha noxor – do'st, o'rtoq) – mo'g'ul xonlari, no'yon huzurida xizmat qiluvchi oliy tabaqali yigitlar. Ushbu leksema tarkibida yigitlar semasi mavjud bo'lib, navkar yigitlar deya ma'noni yana qayta takrorlashga hojat yo'q, nazarimizda.

Tilning ijtimoiy vazifalari faqat til birliklari vositasidagina namoyon bo'lishini inobatga olib, til birliklarining o'ziga xos xususiyatlarini tadqiq etish badiiy matnning lingvopragmatik tahlilida namoyon bo'ladi. Nutqning voqelanishi inson omili bilan bog'liq ekan, nutqiy muloqot jarayonini lingvopragmatik nuqtayi nazaridan o'rganish, buning natijasi o'laroq, aksariyat hollarda qahramonlar nutqi individualligini hosila ma'nolarda ifodalash uchun tavnologiya va pleonazmdan foydalanishi XXI asr o'zbek dramalarida yaqqol ko'zga tashlanadi. Badiiy matni pragmatik nuqtayi nazardan tahlil qilish, uning ta'sir mexanizmi hamda samaradorlik omillarini aniqlash, shaxs, nutqiy vaziyat, kommunikativ strategiya va taktika, baho kategoriyasi kabilarning muallif intensiyasi bilan aloqadorligini tahlil qilish tilning pragmatik zaxirasini ochib berish imkonini

